

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
3 - son qarori

2023-yil 27-fevral

Toshkent shahri Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

KUN TARTIBI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish.
2. “O‘zkimyosanoat” AJ ustaviga o‘zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
3. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga o‘zgartirish kiritish va aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritiladigan o‘zgartirishlar matnini tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qabul qilindi:

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli (davlat ulushi) umumiy nominal qiymati 279 685 715 so‘m bo‘lgan 244 267 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni qisqartirish (bekor qilish) yo‘li bilan jamiyatning ustav kapitali 904 343 636 650 so‘mdan 904 063 950 935 so‘mga kamaytirilsin.

Shu bilan birga, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazilgan aktivlarning balans (qoldiq) qiymati (279 685 672,29 so‘m) va “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish summasi (279 685 715 so‘m) o‘rtasida shakllangan 42,71 so‘m farq, ya’ni qoldiq summa kelgusida davlat aktivi sifatida hisobga olinadi.

1.3. “O‘zkimyosanoat” AJning har birining nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan, 789 575 503 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarga bo‘lingan yangi ustav kapitali 904 063 950 935 so‘m miqdorida tasdiqlansin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJ yangi tahrirdagi ustavi mazkur qarorning 1 - ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish maqsadida 244 267 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni qisqartirish (bekor qilish) bilan bog‘liq avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan (2020-yil 26-iyundagi P0315-14-son) aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishiga o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (2020-yil 26-iyundagi P0315-14-son) kiritiladigan o‘zgartirishlar matni mazkur qarorning 2 - ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi o‘rnatilgan tartibda:

- Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay o‘z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qilsin;

- Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

- Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish bilan bog‘liq tegishli hujjatlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida qayta ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

Qaror rasmiylashtirilgan sana: 27.02.2023-yil